SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

AKINDIKOV NURMAXAMBET BORANTAYEVICH

G‘ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARI ADABIYOTI POETIKASI: ZAMONAVIY TALQIN VA QIYOSIY TAHLIL (maktab darsliklari materiali asosida)

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 82:37.091.3:378+81-115

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Akindikov Nurmaxambet Borantayevich
G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyoti poetikasi: zamonaviy talqin va qiyosiy tahlil (maktab darsliklari materiali asosida) 3

Акиндиков Нурмахамбет Борантаевич
Поэтика западноевропейской литературы: современная интерпретация и сравнительный анализ (на материале школьных учебников) 25

Akindikov Nurmakhambet Borantaevich
Poetics of Western European literature: modern interpretation and comparative analysis (based on school textbooks) 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 54

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

AKINDIKOV NURMAXAMBET BORANTAYEVICH

G‘ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARI ADABIYOTI POETIKASI: ZAMONAVIY TALQIN VA QIYOSIY TAHLIL (maktab darsliklari materiali asosida)

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2247 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdchti.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim tarmog‘ining (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ismailov Anvar Rustamovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Musurmonov Erkinjon Rabbimovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Buriyeva Nargiza Kuchkarovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Guliston Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “___”_____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail:info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan.) Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kunida tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B. A. Xolikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyot poetikasi ijodkorning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va ijodiy individualligi bilan bog‘liq holda tadqiq etilmoqda, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyoti namunalarining janriy tabiati, syujet va kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, badiiy nutqi hamda tasviriy-ifodaviy vositalari zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari asosida o‘rganilmoqda, turli milliy adabiyotlar poetikasidagi umumiylik va o‘ziga xosliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilinmoqda. Maktab darsliklarida G‘arbiy Yevropa adabiyoti namunalarining tanlanishi va taqdim etilishi, ularning poetik xususiyatlarining tizimli yoritilishi hamda zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlari asosida qiyosiy talqin qilinishi bilan bog‘liq masalalar yetarli darajada ilmiy tizimlashtirilmay qolmoqda. Shu bois G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyoti poetikasini maktab darsliklari materiallari asosida zamonaviy talqin va qiyosiy tahlil tamoyillari asosida o‘rganish, badiiy asarlarning poetik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni ta’lim jarayonida samarali yoritishning ilmiy-metodik mezonlarini belgilash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyoti namunalari, xususan, U. Shekspir, J. Svift, J. B. Molyer va V. Skott kabi ijodkorlarning asarlarini milliy-tarixiy va xorijiy tajriba asosida qiyosiy o‘rganish, ularning janriy tabiati, syujet-kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi, badiiy tili va uslubiy xususiyatlarini zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlari asosida talqin qilishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda xorijiy badiiy asarlarni maktab yoshidagi kitobxonlar uchun tanlashning badiiy-poetik va falsafiy asoslarini aniqlash, milliy va mental xususiyatlarni inobatga olish, ularni milliy adabiyot namunalari bilan qiyosiy o‘rganish, muallif biografiyasi va asar yaratilgan tarixiy-madaniy muhitni poetik tahlil bilan bog‘liq holda yoritish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda. Hozirgi davrda maktab darsliklarida xorijiy adabiyot namunalarini tanlash va taqdim etishning badiiy-poetik mezonlarini takomillashtirish, qiyosiy-filologik talqinini kuchaytirish, nazariy adabiyotshunoslik tushunchalari va savol-topshiriqlar tizimini badiiy matn poetikasini chuqurroq anglashga yo‘naltirish hamda ilg‘or xorijiy tajribani milliy ta’lim amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarini rivojlantirish, jahon ilm-fani va madaniy merosining ilg‘or yutuqlarini milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish, xususan, adabiyot ta’limining mazmunini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. “Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun ‘Yangi O‘zbekiston’ va ‘Uchinchi Renessans’ so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda”[1]. Shu jihatdan maktab darsliklarida o‘rganilayotgan xorijiy

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари: Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда // https://uza.uz/uz/posts/yangi_293336.17.08.2021

adabiyot namunalarini bugungi ma’naviy-ma’rifiy muhit talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, ularning poetik xususiyatlarini qiyosiy-filologik va poetik-struktur tahlil asosida yoritish, asarlarni tanlash va taqdim etish mezonlarini takomillashtirish hamda G‘arbiy Yevropa adabiyoti namunalarining o‘quvchilar adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakillantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyoti namunalarining bugungi ijtimoiy hayotda ta’sir doirasi g‘oyat keng. Dunyo adabiyotshunosligida badiiy matnlarning filologik talqini va idroki masalasi Elvell Setton, J. Garsin de Tassi, A. Bombasi, M. Ko‘pruluzoda, D. Selvi[2], N. Trapeznikova, S.V. Turayev, T.F. Kurdyumova, A.G. Kutuzov, V.G. Mansman kabi xorij olimlari tomonidan turli mamlakatlar va xalqlarning adabiyotiga xos materiallar asosida tadqiq etilgan[3]. Hozirda yurtimizda ham mutolaa madaniyatiga e’tiborning ortishi, uning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, buning natijasida barcha ta’lim tizimlarida milliy adabiyotimiz bilan bir qatorda, jahon adabiyoti durdonalarini o‘qitishga, tarjima qilishga ham e’tibor ortganligi diqqatga molik

[2] Bombaci A. The Turkic Literatures. Introductory Notes on the History and Style. – PhTF. T. 2, 1994. – 96 p.; Garcin de Tassy J. Rhetorique et prosodie des langues de l’Orient musulman. – Paris: 1993. – 282 p.; Elwell Sutton L. R. The Persian Metres. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 300 p.; Köprülü-zade M. – Babur Şahının şiirleri. – İstanbul, 1956. – 204 s.; Selvi D. Kaynaklariyla tasavvuf. – İstanbul: Semerkand, 2014. – 204 s.

[3] Трапезникова Н. Зарубежная литература в средней школе. – Казань, 1982. – 195 с.; Тураев С.В. Изучение зарубежной литературы в школе. –М.: Просвещение,1982. – 160 с.; Курдюмова Т.Ф. Литература. Начальный курс: Учебник-хрестоматия для 7 класса, Ч.2, – М., 2004. – 234 с.; Кутузов А.Г. В мире литературы: Учебник-хрестоматия для 8 класса. –М., 2005. – 496 с.; Маранцман В.Г. Труд читателя –М.: Просвещение, 1986. -124 с.;

voqeliklardandir. Binobarin, chet el adabiyoti vakillari ijodi va ularning ta’lim tizimida o‘qitilishi, filologik talqini, asarlari poetikasi haqida qator tadqiqotlar yaratilgani, matbuot sahifalarida bahslar yuzaga kelgani tabiiydir. Jumladan, o‘zbek maktablarida adabiyot fanida ham xorij adabiyotini o‘qitish va filologik talqin etish muammolari S. Dolimov, A. Zunnunov, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov kabi olimlar tomonidan o‘rganilib, maxsus qo‘llanma va boshqa o‘quv adabiyotlari shaklida nashr etilgan[4]. Ularda adabiyotni o‘qitishning umumiy muammolari mumtoz o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha ham tavsiyalar berilgan.

Mustaqillik yillari adabiyotni o‘qitish va tavsiya etilgan badiiy matnlarni filologik talqini masalasiga bag‘ishlangan bir qator jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Adabiyotshunos va pedagog olimlardan Q. Yo‘ldoshev, B. To‘xliyev, M. Mirqosimova, Q. Husanboyeva, U. Dolimov va boshqalarning ilmiy ishlarida mazkur muammolar bilan bog‘liq, bevosita yoki bilvosita ayni masalaga daxldor jihatlar borligini qayd etish o‘rinlidir[5]. Adabiyotshunos olimlardan M.N. Xolbekov, P.Qodirov, Y.Solijonov, S.Mamadiyorova, D.To‘rayev, U.Fayzullayeva[6] va boshqalar ham o‘z tadqiqotlarida ushbu muammoga ma’lum darajada to‘xtalib o‘tishgan. Biroq, masala mazkur dissertatsion tadqiqot uchun belgilangan tarzda, xorijiy-adabiyot namunalari poetikasi zamonaviy nazariy adabiyotshunoslikning qiyosiy filologik va poetik-struktur tahlili aspektida, aynan G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyoti misolida yaxlit monografik tarzda qiyosiy-chog‘ishtirma planda o‘rganilmagan. Albatta, e’tiborimizni muammoning qiyosiy adabiyotshunoslikda o‘rganilishi tarixiga qaratsak, ayrim ijodkorlar ijodi mavzusiga doir qator masalalar o‘rganilganidek tasavvur uyg‘onadi. Biroq, bu yuzaki tasavvurdir. Zero, bugungi milliy mentalitetimiz va davr talabi, shuningdek, ijod maktablari, Prezident maktablari singari yangi tipdagi o‘ta zamonaviy ta’lim muassasalarining paydo bo‘lganligi nuqtai nazarlaridan masala mohiyatiga qaralsa, xorijiy adabiyotga doir o‘rganilayotgan materiallar, ilmiy-tarixiy, poetik-struktur hamda qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan xolisona chuqur tadqiq

---

[4] Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 448 b.; Zunnunov A. V–X sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 142 b.;

[5] Yo‘ldoshev Q. B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Pedagog. fan. dokt. … diss. – Toshkent, 1996. – 238 b.; To‘xliyev B., Abdurahmonova B. “Qutadg‘u bilig”ni o‘rganamiz. – Toshkent: Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 82 b.; To‘xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot. Majmua. Akademik litseylarning 1-bosqichi uchun. – Toshkent: Cho‘lpon, 2007. – 216 b.; Mirqosimova M. Hozirgi o‘zbek adabiyoti namunalarini sharhlab o‘rganish. – Toshkent: TDPU, 2015. – 184 b.; Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish: O‘quv qo‘llanma. – T.: Barkamol-fayz-media, 2018. – 352 b.; Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari (til va adabiyot o‘qitish muammolari). – Toshkent: Fan, 2007. – 204 b.

[6] Qarang: Xolbekov M.N. XX asr jahon adabiyoti manzaralari (Tadqiqotlar, ilmiy - tanqidiy maqolalar). – Toshkent: Mumtoz so’z, 2020. – 705 b.; Xolbekov M.N. Struktur adabiyotshunoslik: tadrij va talqin // So‘z san’ati. – Toshkent, 2018. – №2. – B. 4-16; 2004. – №12 // https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/pirim-ul-odirov-manaviyat-moderniz/; Solijonov Y. Sizif va absurd // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2010. – №1 // https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/j-ldosh-solizhonov-sizif-va-absurd/; Mamadiyorova S. Alber Kamyu publitsistikasida inson omili//Jahon adabiyoti va madaniyati // https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/alber-kamyu-ijodida-inson-omili.html; To‘rayev D. Sizif rivoyati o‘zbek adibi talqinida // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2018. – №6 // https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/damin-toraev-sizif-rivoyati-ozbek-adibi-talqinida; Kadirov V. A. Umumta’lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Pedagog. fan. doktori … diss. - Namangan, 2019. Fayzullayeva U. Virjiniya Vulf romanlarida ayol ichki dunyosining tasvirlanishi: Filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) … diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 51 b.

va tahlilga, yangidan-yangi ilmiy izlanishlarga ehtiyoj mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “XXI asrda badiiy matn poetikasini qiyosiy o‘rganishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi G‘arbiy Yevropa adabiyotiga xususan, Antik va didaktika asri, Ezop, U. Shekspir, J. Svift va ma’rifatparvarlik davri ijodkorlari yaratgan badiiy matnlar poetikasining zamonaviy o‘zbekcha talqinlarini M.Gulxaniy, A.Fitrat asarlari bilan poetik-struktur, qiyosiy-filologik hamda tarixiy-retrospektiv planda ochishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

xorijiy adabiyot namunalari poetikasining maktab darsliklaridagi ilmiy va metodik talqin xususiyatlarini milliy va xorijiy tajriba asosida qiyosiy tahlil qilish;

Mustaqillik davrida G‘arbiy Yevropa adabiyoti namunalarining o‘zbek adabiyotshunosligida filologik va poetik mezonlar asosida talqin qilinishini tahlil etish;

Ezop va Gulxaniy asarlarining milliy o‘rta maktab darsliklariga kiritilgan namunalarini qiyosiy-filologik hamda poetik-struktur tahlil asosida o‘rganish;

Jonathan Swift asarlari misolida maktab adabiyotshunosligida ma’rifatparvarlik g‘oyalarining badiiy matn poetikasi orqali talqin qilinishini ochib berish;

U. Shekspirning “Hamlet” va Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” tragediyalarini qiyosiy tahlil asosida maktab darsliklarida dramatik asarlar talqini hamda adabiyotshunoslik atamalarining berilishini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida G‘arbiy Yevropa va o‘zbek adabiyoti namunalari – Ezop, U. Shekspir, M. Servantes, J. Svift, A. Ekzyuperi, H.K. Andersen, M.Gulxaniy, A.Fitrat va boshqa ijodkorlar asarlari hamda ularni qamrab olgan adabiyot darsliklari olingan.

Tadqiqotning predmetini obyekt qilib olingan o‘rta maktab adabiyot darsliklariga kiritilgan G‘arb adabiyoti namunasi bilan qiyosiy aspektda o‘rganilayotgan o‘zbek adabiyoti namunalari talqinining filologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsifiy, adabiy-tarixiy, poetik-struktur, kognitiv-konseptual, qiyosiy-adabiy, kontekstual hamda madaniyatlararo tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xorijiy adabiyot namunalari poetikasining maktab darsliklaridagi ilmiy va metodik talqiniga doir o‘quvchilarning yoshi va idrok darajasiga muvofiqlik, ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatlilik kabi pedagogik hamda asarning janriy-poetik o‘ziga xosligini saqlash, syujet-kompozitsion yaxlitligini hisobga olish, obrazlar tizimi va badiiy-uslubiy vositalarini asarning g‘oyaviy mazmuni bilan uzviy bog‘liqlikda talqin etish kabi badiiy-estetik mezonlar aniqlashtirilgan;

mustaqillik davrida G‘arbiy Yevropa adabiyoti namunalarining o‘zbek adabiyotshunosligidagi talqini hamda Ezop va Gulxaniy asarlarining maktab darsliklaridagi qiyosiy-tipologik mushtaraklik va farqlari asosidagi poetik xususiyatlari dalillangan;

Jonatan Svift asarlari misolida maktab adabiyotshunosligida ma’rifatparvarlik g‘oyalarining badiiy matn poetikasi orqali ifodalanish va talqin etilish xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslanib, ularning metodik yondashuvdagi matnni kontekstual tahlil qilish, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini badiiy vositalar orqali ochib berish hamda o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan;

U. Shekspirning “Hamlet” va A. Fitratning “Abulfayzxon” tragediyalari misolida maktab darsliklarida dramatik asarlar talqini hamda adabiyotshunoslikdagi qiyosiy-tipologik yondashuvning tarixiy-badiiy kontekst, dramatik konflikt, obrazlar tizimi va syujet-kompozitsion qurilmani uyg‘un tahlil qilish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chet el adabiyotini maktab ta’limida talqin etish bo‘yicha tarixiy va qiyosiy adabiyotshunoslikdagi yangi tadqiqotlar, sohaning taraqqiyot tamoyillari hamda adabiyot ta’limining tarixiy va zamonaviy xususiyatlari umumlashtirilib, ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati asoslangan holda, maktab ta’limida o‘qitilayotgan G‘arb badiiy adabiyoti namunalarining dasturiy-badiiy-falsafiy asoslari, matnlar poetikasi qiyosiy-filologik va poetik-struktur tahlil metodlari uyg‘unligida ochib berilgan;

talqinda ta’lim subyekti uchun badiiy asar poetikasining yetakchi unsurlariga asosiy e’tibor qaratilishi bilan bir qatorda falsafiy, lingvopoetik va pragmatik unsurlar inobatga olinishi zaruratidan kelib chiqib ilmiy talqin asoslari umumlashtirilgan;

G‘arbiy Yevropa xalqlari adabiyotini o‘qitishda va rivojida yangilanishlarning o‘rni, yangi tipdagi Ijod maktabi, Prezident maktabi kabi yangicha ta’lim shakllari va ularda ta’lim mazmuni shakllantirilishi taqozo etilishi hamda badiiy-estetik vazifalarning ahamiyati belgilangan;

hozirgi o‘zbek jamiyatida kechayotgan keng islohotlar, Yangi O‘zbekiston davri talablaridan kelib chiqib, maktabda xorijiy adabiyot namunalarini o‘qitish uchun tanlashning yangicha mezonlari borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat’iyligi, qo‘llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma’lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, tahlilga tortilgan badiiy va rasmiy materiallarning asosliligi, antropotsentrik paradigma usullaridan foydalanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xorijiy, xususan, G‘arb adabiyoti namunalarining maktab

ta’limidagi talqini va poetikasini o‘rganishga doir nazariy qarashlarni boyitish, qiyosiy adabiyotshunoslik, nazariy adabiyotshunoslik va badiiy matn poetikasining ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish, shuningdek, boshqa xalqlar adabiyoti namunalarini qiyosiy tadqiq etishning nazariy imkoniyatlarini kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, chet el adabiyoti, adabiyot o‘qitish metodikasi va badiiy matn poetikasi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, maxsus kurslar mazmunini shakllantirish, maktab darsliklari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda mazkur yo‘nalishda dissertatsiya va ilmiy maqolalar tayyorlashda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston o‘rta maktablari tizimida o‘qitilayotgan G‘arbiy Yevropa xalqlari adabiyoti namunalarini qiyosiy filologik va poetik-struktur jihatdan o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

xorijiy adabiyot namunalari poetikasining maktab darsliklaridagi ilmiy va metodik talqin xususiyatlari ularning o‘quvchilarning yosh va idrok xususiyatlari, ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari bilan bog‘liq pedagogik hamda janriy-poetik tabiati, syujet-kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi va badiiy-uslubiy xususiyatlarini qamrab oluvchi badiiy-estetik mezonlari aniqlashtirilganligi haqidagi ilmiy yangiliklaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2014-2016-yillarga mo‘ljallangan Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK- TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 28-sentabrdagi 641/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yevropa adabiyoti namunalarining pedagogik va badiiy-estetik mezonlari asosida tanlanishi hamda talqin etilishi bo‘yicha ishlab chiqilgan yondashuvlar loyiha doirasidagi Yevropa tillarini o‘qitishning zamonaviy usullarini rivojlantirish va blended Master’s dasturlarining mazmunini takomillashtirishga xizmat qilishiga erishilgan;

mustaqillik davrida G‘arbiy Yevropa adabiyoti namunalarining o‘zbek adabiyotshunosligidagi talqini hamda Ezop va Gulxaniy asarlarining maktab darsliklaridagi qiyosiy-tipologik mushtaraklik va farqlari asosidagi poetik xususiyatlari dalillangan aniqlanganiga doir ilmiy yangiliklardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 29-sentabrdagi 02642-son ma’lumotnomasi). Natijada, Natijada, loyiha doirasida ingliz va o‘zbek adabiyoti namunalarini qiyosiy-tipologik o‘rganish asosida ularning poetik xususiyatlarini yorituvchi ilmiy-nazariy materiallar tizimlashtirilib, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida virtual o‘quv resurslarini yaratish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etish mazmuni takomillashtirilgan;

Jonatan Svift asarlari misolida maktab adabiyotshunosligida ma’rifatparvarlik g‘oyalarining badiiy matn poetikasi orqali ifodalanish va talqin etilish xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslanib, ularning metodik yondashuvdagi matnni kontekstual tahlil qilish, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini badiiy vositalar orqali ochib berish hamda o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘ziga xos jihatlari ochib berilganligi haqidagi yangilik hamda xulosalardan Samarqand radiosining 2023-yil 5-oktabr kuni efirga uzatilgan “Ta’limdagi islohotlar” eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston Teleradiokanali” Davlat muassasasining 2023-yil 10-oktabrdagi 01-07/330-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Ta’limdagi islohotlar” eshittirishlari ssenariylarining mazmuni badiiy matnni kontekstual tahlil qilish, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini badiiy vositalar orqali yoritish hamda o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik materiallar bilan boyitilgan;

U. Shekspirning “Hamlet” va A. Fitratning “Abulfayzxon” tragediyalari misolida maktab darsliklarida dramatik asarlar talqini hamda adabiyotshunoslikdagi qiyosiy-tipologik yondashuvning tarixiy-badiiy kontekst, dramatik konflikt, obrazlar tizimi va syujet-kompozitsion qurilmani uyg‘un tahlil qilish imkoniyatlari asoslanganligi haqidagi xulosadan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo‘limi qoshidagi “Sadoqat” ijodiy to‘garagi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo’limining 2023-yil 8-noyabrdagi 45-son ma’lumotnomasi). Natijada, Natijada, “Sadoqat” ijodiy to‘garagi faoliyatida dramatik asarlarni tarixiy-badiiy kontekst, dramatik konflikt, obrazlar tizimi va syujet-kompozitsion qurilish uyg‘unligida qiyosiy-tipologik tahlil qilish asosida o‘rganish yo‘nalishlari takomillashtirilib, ishtirokchilarning badiiy matnni qiyosiy tahlil qilish va adabiy-estetik mushohada yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta xorijiy, 6 ta respublika ilmiy jurnallarida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hahmi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy

yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Xorijiy badiiy adabiyot namunalari poetikasi: filologik talqin, tahlil va tajriba**” deb nomlangan. Bu bobda xorijiy adabiyot namunalari poetikasida o‘ziga xosliklar, bunda milliy va xorijiy tajriba, shuningdek, Mustaqillik davrida G‘arbiy Yevropa adabiyoti namunalarining o‘zbekcha talqini hamda badiiy poetik mezon va tanlov prinsiplari xususida ma’lumot keltirilgan.

Bobning birinchi paragrafi *“Xorijiy adabiyot namunalari poetikasida o‘ziga xoslik: milliy va xorijiy tajriba”* deb nomlangan bo‘lib, bunda adabiyot – yosh avlod ma’naviy qiyofasining shakllanishiga va axloqiy-ruhiy yuksalishiga rag‘bat beruvchi tayanch ekani, uning insonnning hissiy-emotsional, aqliy va estetik rivojlanishida, borliqni va milliy o‘zlikni anglshida muhim o‘rin tutishi yoritilgan. Zotan, badiiy so‘z san’atini va uning inson kamolotidagi o‘rnini to‘g‘ri tasavvur qilmagan millat ma’naviy taraqqiyotini tasavvur etish mushkul. Ma’naviy kamolot esa jamiyatning barcha boshqa muhim jihatlari yuksalishida mislsiz mustahkam poydevordir. Chunki, adabiyot dunyoni estetik idrok qilishda, bu umumiy global makonda insonni borliqda, borliqni insonda tasavvur etishda, shuningdek, borliqning inson kognitiv olamida baholanishi va real olamdagi inson maqomining idrok qilininshida katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Adabiyot mazkur xususiyati bilan bugungi tahlikali olamda o‘z ijtimoiy funksiyasi orqali analogi bo‘lmagan katta kuch – qudrat manbayi darajasida xizmat qilishga qodirligiga dunyo hamjamiyati tarixi guvohlik beradi. Bu esa, o‘z o‘rnida, millat kelajagi, yurt ravnaqi, bashariyat milliy-ma’naviy tamaddunida ezgulikka ajdodlar tomonidan qo‘yilgan tamal toshini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Jahon adabiyotini, xususan, G‘arbiy Yevropa adabiyoti namunalarining o‘zbek kitobxonlarining, ayniqsa, yosh avloddan iborat bo‘lgan qatlami tomonidan zamonaviy badiiy poetik mezon va tanlov prinsiplari asosida o‘rganinlishi bu boradagi yuksalishning muhim bosqichlaridan birini taqazo etadi. Paragrafda ana shularga asoslanib, adabiyot asrlar davomida san’at va ilm-fan chegarasida turib jamiyat taraqqiyotida yuksalish ko‘prigi vazifasini bajarib kelganiga e’tibor qaratilgan. Adabiyot, jumladan, xorij yoki chet el adabiyoti ham u yoki bu jamiyat hayotida san’atning turli shakllari paydo bo‘lishiga va ularning taraqqiyotiga sabab bo‘lgan, umummilliy va ba’zan umumbashariy siyosiy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatib, buyukligi va abadiyligi bilan hali hamon muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangicha adabiy uslublar insonlarga yangilanib borayotgan reallikni his etish va uni o‘rganishga kuch bergan, zero, yuksak badiiy saviyada yaratilgan adabiy asarlar ko‘pincha tarixiy voqelikdan ilgarilab ketadi. Biz hozir ham, ming yillar oldin yurtimizdan yiroq-yiroqlarda, o‘zga o‘lkalarda yozilgan qadimiy ijod namunalarini o‘qib, amalda hech narsa o‘zgarmaganligidan, tarix g‘ildiragi qayta aylanayotganligidan, voqealar takrorlanayotganligidan hayratda qolamiz.

Xorijiy adabiyotning jahon madaniyatida tutgan o‘rni va roli juda katta. “Sharqu G‘arbda yashab o‘tgan allomalarning aksariyati tarjima amaliyoti bilan

shug‘ullanganlar. Xalqparvar, millat ravnaqini maqsad qilgan hukmdorlar olimu fuzalolarni o‘z atrofiga yig‘ib, ularning tarjima bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berishga harakat qilganlar. Natijada turli yurtlarda yaratilgan ilmiy asarlarning umuminsoniy mulkka aylanishiga, bir madaniyatga xos san’at va badiiyat namunasini boshqa madaniyat doirasida ham o‘z qadrini topishiga katta hissa qo‘shganlar”[7]. Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy o‘z zamonasi to‘g‘risida ta’kidlaganlaridek, “butun to‘plangan ilmu-fan namunalari arab tiliga o‘girilib, qayta ishlandi va tavsiflandi hamda insonlar qalbidan joy topdi”[8]. Bunda buyuk allomalarni yetishtirgan ta’lim-tarbiya o‘chog‘i, oliy ta’lim muassasasi maqomini olgan madrasalarning ahamiyati juda katta bo‘lgan.

Xorijiy adabiyot namunalari poetikasi talqinining ilmiy-filologik o‘ziga xosliklarini milliy-tarixiy va xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili asosida o‘rganish va tahlilini amalga oshirish uchun ta’lim tizimi tarixiga murojaat etmog‘imiz lozim. Temuriylargacha ham ayrim hududlarda olimlar va ulamolarning ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlari doirasida badiiy so‘z tahliliga e’tibor kuchli bo‘lgan. Mazkur faoliyat bilan bog‘liq bilimlar ta’limiga ham ijtimoiy ahamiyat kuchli edi. Ayni qaydlarga ko‘ra, har bir madrasa katta-kichik bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘z ta’lim dasturi, o‘quv qo‘llanmalariga ega bo‘lgan. Bu dastur va darsliklarda ham badiiy so‘z va uning mohiyati, qudrati xususidagi ta’limotlar lozim darajada o‘z ifodasini topgan.

Birinchi bobning (1.2.) ikkinchi paragrafi “*Mustaqillik davrida G‘arbiy Yevropa adabiyoti namunalarining o‘zbekcha talqini: badiiy poetik mezon va tanlov prinsiplari*” deb nomlangan. Ma’lumki, tadqiqotimiz obyekti – o‘rta maktablarda xorijiy adabiyot namunalari poetikasi talqinining ilmiy-filologik o‘ziga xosliklarini milliy-tarixiy va xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili asosida filologik tahlil prinsiplariga, qiyosiy adabiyotshunoslik mezonlariga mos kelishi, ta’bir joiz bo‘lsa, “maktab adabiyotshunosligi”ning bugungi holati, muayyan asarlar tanlanishining badiiy poetik hamda falsafiy asoslariga e’tibor qaratish, dunyo hamjamiyatining ilg‘or a’zolari bo‘lgan mamlakatlar tajribalari bilan qiyoslash, ular tajribasini o‘rganish, zarur o‘rinlarda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bunda asosiy e’tibor adabiyotni o‘qitish usullarini belgilash emas, balki badiiy adabiyot namunalarini maktab yoshidagi kitobxonlar uchun tanlash prinsiplarini aniqlash, bunda milliy va mental xususiyatlarning inobatga olinishi asosida tegishli tavsiyalarning ishlab chiqilishiga alohida e’tibor qaratish muhim o‘rinlardan birini egallaydi. Holbuki, o‘rta maktablarda o‘rganiladigan badiiy matnlar sharhidagi asosiy fikr va mulohazalar, metod va usullar, barcha-barchasi sof filologiya, chet el adabiyoti borasida esa qiyosiy adabiyotshunoslik sohasiga tegishli ilmiy masala ekanligi unutiladi yoki chetga suriladi. Buning zamirida Sho‘rolar tuzumi davrida o‘tgan asrning 60-yillarigacha mafkuraviy tazyiq ta’sirida chet el adabiyoti ta’limi, umuman adabiyot ta’limi borasida o‘rta

[7] Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari: Monografiya. – Toshkent, 2019. – B. 4.
[8] Wilson B. Humanities in the Arabic-Islamic World. – Dubluque, Iowa: C. Brown Company Publishers, 1973. – P. 377.

maktabda sof pedagogik aspekt ustuvorlik qilgani, oqibatda ta’lim tizimida badiiy adabiyot o‘qilishi masalasi sun’iy ravishda pedagogika va metodika sohalari muammosiga aylantirib qo‘yilgan, badiiy poetikaga e’tibor susaygan, mutolaaga qiziqish va qiziqtirish masalalari e’tibordan chetda qolgan. XX asrning 70-80-yillarda asta-sekinlik bilan adabiyotning, jumladan, chet el adabiyotining ahamiyati va jamiyatdagi roliga nisbatan yangicha estetik-filologik munosabat, o‘quvchilarning umumestetik tarbiyasi jarayoniga ta’sir etishi nuqtai nazaridan shakllandi. Xorij tajribasi esa maktabda chet el adabiyoti namunalarining qaysilarini qaysi usulda o‘rganilishini belgilab berish, talqin qilish filologiya fani masalalasi va muammosi ekanligi e’tirof etilgan va bu borada jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Mutolaa inson hayotida eng muhim ko‘nikmalardan biridir. Busiz borliqni kognitiv va pragmatik anglash juda qiyin kechadi. Hozirda aksariyat mutaxassislarning fikricha, maktab amaliyotida o‘quvchilarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari susayib ketgan. Maktabdan tashqari kitobxonlik kam, hatto adabiyot darslariga munosabat salbiylashib borayotganiga oid fikr va mulohazalar, qanchalik ayanchli bo‘lmasin, kuzatiladi. Mazkur fikr va qarashlar shunchaki aytilgan jumlalar emas, balki bu jumlalar zamirida hayotiy haqiqatning in’ikosi mujassamdir. Nazarimizda, o‘qishga qiziqishning umumiy pasayishi, kitobdan boshqa ma’lumot manbalarining ko‘payganligi (masalan, internet tarmorg‘ining rivoji, televideniye telekanallarning ko‘paygani, kabelli televideniyening paydo bo‘lishi, videotexnika hamda kompyuter berayotgan cheksiz imkoniyatlar oxir-oqibatda shunday “ekran madaniyati”) yoshlar va bolalarning mutolaa madaniyatiga keskin ta’sir ko‘rsatmoqda. Maktab o‘quvchilari kitobdan internet, televideniye va turli gadjetlardagi o‘yinlarni afzal bilishmoqda. Mavjud holatning yana bir sababi ota-onalarning o‘z bolalarini kitobga qiziqishlarini tarbiyalashni istamasliklaridir. Shu bilan birga, eng muhim sabablardan biri – maktab adabiyotshunosligining chetga surilganligi, ta’lim tizimida badiiy matn tahlili pedagoglar zimmasiga yuklanib qolganidir.

Adabiyot o‘qituvchisi nafaqat badiiy adabiyotning tabiati, uning nazariyasi va psixologik mohiyati bilan, balki badiiy matnni kitobxon – o‘quvchi tomonidan idrok etilishining o‘ziga xosliklari bilan ham yaxshi tanish bo‘lmog‘i kerak. Bir asar turli kishilar tomonidan turlicha idrok etilishi mumkin. Bu shaxsning individual ong xossalari, mavjud tajribasi kabilar bilan bog‘liq. Shu sababli adabiyot darsida asosiy e’tibor badiiy asarning tashqi (tili va uslubi) hamda ichki – obrazlar tizimi tadqiqiga, o‘quvchilarda mantiqiy hamda obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim. Bunday yondashuv natijasida sinf izlanish laboratoriyasiga aylanib, unda muammo axtariladi, shakllantiriladi va uni hal etish yo‘llari o‘rganiladi. Shubhasiz, bunday mashg‘ulotlarda anglash faolligi ortadi, charchoq hissi bartaraf etiladi, bilimlar mustahkamlanadi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Afsuski, adabiyot fani o‘rganila boshlanadigan o‘zbek maktablarining 5-sinf darsligida[9] bu talablarga qisman amal qilinadi. Shu bilan

[9] Qarang: Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism / S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – Toshkent: Sharq, 2020. – 272 b.

birga, ularning nazariy-filologik jihatdan janr ko‘rsatkichlari, chiston janri bilan aloqasi ancha mukammal bayon etilganligini ham e’tirof etmoq joiz. Shu o‘rinda darslikdagi “Hadislar” rukni mukammal ekanligini qayd etish to‘g‘ri bo‘ladi. Biroq, hadislardan so‘ng keltirilgan Ezop masallarining tanlanishida – “Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon”, “Kiyik bilan tokzor”, “Bo‘ri bilan laylak”, “Ustiga tuz ortilgan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” – yuqorida aytilgan mavzu jihatdan mantiqiy izchillik, o‘quvchilar uchun ularning mazmuniy qadriyatlari doirasida, hayotiy ahamiyat kasb etishi inobatga olinmagan. Shunchaki, Ezop ijodi bilan tanishtiruv hodisasi sodir bo‘lgan, xolos. Aynan, shunday fikrni “Ertaklar olamiga sayohat” turkumiga nisbatan ham aytish mumkin. Shu o‘rinda, mavzumiz nuqtai nazaridan qiyoslash maqsadida rus maktablarining 4-sinflarida o‘qitiladigan asarlarning tanlanishiga e’tibor qaratamiz. Masalan, ruslar har bir sinfda o‘rganish uchun taqdim etilayotgan badiiy asarlarni mavzu-tematik jihatdan uzviyligiga hamda o‘quvchilar uchun ularning mazmuniy qadriyatlari doirasida hayotiy ahamiyat kasb etishiga juda e’tiborli ekanliklari kuzatiladi. Masalan, 4-sinflarga mo‘ljallangan adabiyot darsligining yadrosi sifatida “Oila” mavzusi tanlanadi va dastlab A.S.Pushkinning “Marhum malika haqida ertak...” (“Сказка о мертвой царевне...”) asari keltiriladi[10]. Bundan tashqari, an’anaviy rus oilasiga xos qadriyatlar mumtoz adabiyot vakillaridan N.A. Nekrasovning (“Мужичок с ноготок”), I.Z. Surikovning “Bolalik” (“Детство”) asarlari materialida o‘rganiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ezop va izdoshlari ijodi badiiyatining o‘zbekcha poetik tahlili masalalari”** deb nomlangan bo‘lib, bobda Antik davr va didaktik adabiyot namunalari maktabda o‘rganish obyekti sifatida qiyosiy-filologik va falsafiy-didaktik aspekt (Ezopdan J. Rodariga qadar), shuningdek, maktab adabiyonshunosligida qiyosiy-badiiy tahlil va nazariy-filologik mezonlar (J.Svift asari misolida) tadqiq etilgan.

Bobning birinchi paragrafi (2.1.) *“Antik davr va didaktik adabiyot namunalari o‘rta maktabda o‘rganish obyekti sifatida: qiyosiy-filologik va falsafiy-didaktik aspekt (Ezopdan J.Rodariga qadar)”*ga bag‘ishlangan. Ma’lumki, chet el adabiyotining ahamiyati va uning o‘qitilishi maktab ta’limi uchun nihoyatda muhim. Avvalo shuni ta’kidlash joizki, “jahon adabiyoti” tushunchasi dunyo madaniyatshunosligida, jumladan, adabiyotshunosligida ham milliy adabiyotning o‘zaro ta’sirini, hamkorligini nazarda tutadi. Maktabda o‘qitiladigan xorijiy adabiyot yosh o‘smirlar uchun muayyan mamlakat va xalqlar madaniyati va badiiy tafakkuri to‘g‘risida u yoki bu darajada batafsil ma’lumot beruvchi yagona manba bo‘lib hisoblanadi. Albatta, zamonaviy globallashuv davrida internet, televideniye, radio kabi ommaviy axborot vositalarining rolini butunlay inkor etib bo‘lmaydi, ammo yozma, an’anaviy badiiy asar matnining roli va imkoniyatlari baribir ustuvorlik qiladi. Shu bois, jahon adabiyoti tarixining rivoji amalda turli-tuman milliy adabiyotlarning o‘zaro ta’sirining hosilasidir. O‘zaro ta’sir va hamkorlik muammosining dolzarbligi esa nafaqat adabiyotshunoslik fanining

[10] https://uchebniktetrad.com/1055_Chitat_onlajn_uchebnik_po_literaturnomu_chteniyu_za_4_klass_Klimanova_Goreczkij_chast_2/index.html (Murojaat sanasi: 16.03.2024).

taraqqiyot darajasi bilan, balki badiiy adabiyotning o‘z evolyutsiyasi bilan ham belgilanadi. Tarixchilar orasida keng tarqalgan bir fikr mavjud: alohida olingan bir xalqning xususiy tarixi bilan bir qatorda, umuminsoniyat tarixi ham mavjud. Ushbu tarix bilan uyg‘un tarzda taraqqiy topadigan chet el adabiyoti tarixi bilan o‘quvchilarni tanishtirish har bir xalq madaniyati va adabiyotining noyob ekanligini anglashga ko‘maklashib, o‘zbek xalqi madaniyatining takrorlanmasligini tushunib yetishga, umuminsoniy qadriyatlarga oshno bo‘lishga xizmat qiladi. Aksariyat hollarda zamonaviy maktab ta’limida chet el adabiyoti namunalariga ajratilgan vaqt kam, taqdim etilgan materiallar uzuq-yuluq va parchalardan iborat. Bunday holat nafaqat milliy o‘zbek maktablariga, balki Yevropa, Yaqin Sharq va Rossiya maktab ta’lim tizimi uchun ham xosdir. Ayni davrda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida o‘rta maktabda xorijiy mualliflar asarlarini o‘ylangan, izchil va qat’iy tizimli tarzda o‘rganish masalasi qo‘yilmoqda.

Maktab ta’limida chet el adabiyoti namunalarini, poetikasi talqinining ilmiy-filologik o‘ziga xosliklarini milliy-tarixiy va xorijiy tajribani qiyosiy tahlili orqali adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish o‘ta muhim ahamiyat kasb etishiga qaramay, adabiyot fani dasturlari, asosan, milliy adabiyot materiallari bilan to‘ldirilishi oqibatida, chet el adabiyotiga dars soatlari nisbatan kam ajratiladi. Bundan tashqari, xorijiy adiblar asarlarini o‘rganish aksariyat hollarda choraklik yoki o‘quv yili yakuniga rejalashtirilgan. Maktabning o‘rta va yuqori sinflarida o‘quvchilarning chet el adabiyoti bilan tanishtirilishi ular uchun umumjahon adabiy jarayoni haqida tasavvur berish bilan birga, undagi milliy adabiyotning roli va o‘rnini belgilashga ham xizmat qiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, chet el adabiyoti kursi ham, milliy adabiyot o‘qitilishida bo‘lgani kabi tarixiy-adabiy, adabiy-nazariy hamda madaniy jihatlarni qamraydi. Badiiy matnni ma’lum bir davr kontekstida o‘rganish o‘quvchilarga muallif biografiyasi, unga bog‘liq muhim manbalar bilan tanishish imkonini berish bilan birga, u yashagan va ijod qilgan davrning o‘ziga xosliklari to‘g‘risida ham ma’lumotlar beradi. Badiiy asarni davr bilan bog‘liq tarzda o‘rganish, shuningdek, lisoniy, maishiy, etnografik, tarixiy sharhlarga murojaat qilishni, tasviriy san’at, teatr va kino kabi turli san’at asarlarini jalb etgan holda tahlil etishni taqozo qiladi. Shu o‘rinda yuqorida eslatilgan K.M.Nartov tahriri ostida rus maktablari uchun yaratilgan “Chet el adabiyotini o‘rganish” (“Изучение зарубежной литературы”)[11] asarini ta’kidlash lozim. Unda xorijiy adabiyotni milliy adabiyot bilan uyg‘un ravishda o‘rganish bo‘yicha yaxlit tizim taqdim etilgan. Bu kitobning nazariy jihatlaridan bemalol bizning o‘zbek maktablarimizda ham foydalansa bo‘ladi. Asarda chet el adabiyoti namunalarining maktab auditoriyasida o‘quvchilar tomonidan idrok etilishi, boshqa xalqlar adabiyoti namunalarining o‘quvchilarga ta’siri masalalari keng o‘rganilgan va o‘qituvchilar uchun mumtoz adabiyot namunasini o‘rganish borasida aniq tavsiyalar bayon qilingan. Maktabda o‘qitiladigan chet el adabiyoti fani darslari turli yozma topshiriqlar bajarilishi bilan birga amalga oshirilishi shart.

[11] Взаимосвязи отечественной и зарубежной литератур в школьном курсе: Кн. для учителя. / К. М. Нартов, Н. В. Лекомцева; [Под ред. Л. Г. Нартовой, Н. А. Ремизовой]. - 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Флинта; – М.: Наука, 2003. – 331.

Bayon, kichik hajmli insho, maktab gazetasiga taqriz hamda maqolalar va boshqa shu kabi ijodiy yondashuvni talab qiluvchi matnlarni tuzish bu borada o‘quvchi yoshlarni kitobxonlik faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Bobning ikkinchi paragrafi (2.2.) *“Maktab adabiyonshunosligida qiyosiy-badiiy tahlil va nazariy-filologik mezonlar (J.Svift asari misolida)”* da deb nomlangan. Hozirgi paytda adabiyotshunos va psixologlarining harakatlari (L.G. Jabiskiy, N.D. Moldavskiy, V.G. Maransman, O.I. Nikoforova, Z.Ch. Rez, L.N. Rojina, N.Ya. Meshyeryakova va boshqalar) ta’lim subyektining kitobxon sifatidagi maqomi, uning adabiy kamoloti – rivojlanish qonuniyatlari, kitobxonlik madaniyati darajasining ta’lim tabiatiga bog‘liqligi haqida, yosh bilan bog‘liq tarzda o‘quvchining adabiyotga nisbatan munosabati sifat tomon burilishi to‘g‘risida, kitobxon-o‘quvchining individual fazilatlari va boshqalar borasida ko‘p dalillar ma’lum qilmoqda.

O‘quvchilarning yosh guruhlariga ajratilishi shartli, chunki inson rivoji bir tekis kechmaydi. Uning ichki kamolotining intensivligi turli omillarga bog‘liq, bunda nafaqat yoshi, balki ijtimoiy, maishiy omillar, o‘sib-ulg‘ayayotgan psixologik mikromuhit ham shaxsiyatining individual o‘ziga xosligiga ta’sir ko‘rsatadi. Insonning adabiy-badiiy kamoloti, rivojlanishi, ta’bir joiz bo‘lsa, tarbiyasi masalasi yanada murakkab kechadi. Ma’lumki, bir yoshdagi guruhga mansub o‘quvchilar orasida badiiy jihatdan turlicha rivojlanganlarga duch kelish mumkin. Ba’zi o‘smirlar tengdoshlaridan ikki-uch yilga ilgarilab ketgan bo‘lsa, boshqalari aksincha ortda qolib ketadi. Biroq, individual farqlanish qanchalik katta va keskin bo‘lmasin, bir yoshdagi maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘xshash jihatlar shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Barcha maktablar, jumladan, o‘zbek o‘rta maktablari uchun ham umumiy bo‘lgan maktab ta’limida adabiy asarni, xususan, xorijiy adabiyot namunalari poetikasi talqinining ilmiy-filologik o‘ziga xosliklarini milliy-tarixiy va xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili asosida o‘rganishning bosqichlarini yana bir karra tanqidiy tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asar, xorijiy adabiyot namunalari poetikasi talqinining ilmiy-filologik o‘ziga xosliklarini milliy-tarixiy va xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili – o‘qituvchining sinf bilan ishlash jarayonidagi eng muhim payt, jihat o‘qituvchining vazifasiga matnni idrok etish hamda uning tahlili, tushunilishi o‘rtasidagi o‘ziga xos to‘siqni bartaraf etmog‘i lozim. Tahlil mazmuni asarning umumiy mazmuni, uning g‘oyaviy yo‘nalganligi; sujet; sujet tahlili davomida qahramonlar xarakteriga, obrazlar tizimiga, qahramon portretiga, shart-sharoitlarga, peyzaj va alohida olingan ba’zi badiiy detallarga aniqlik kiritiladi; kompozitsiya (asarning umumiy tuzilishi) va tilini yoritib beradi. Har bir vaziyatda o‘quvchi sanab o‘tilgan tarkibiy qism komponentlaridan birini ongli tarzda idrok etadi, tushunadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“G‘arb adabiyoti namunalarining janr xususiyatlari va maktab adabiyotshunosligi masalasi (yuqori sinf darsliklari materiali asosida)”** deb nomlangan. Bobda o‘rta maktab darsliklarida dramatik asarlar talqini va adabiyotshunoslik atamalarining berilishi (U. Shekspirning “Hamlet” tragediyasi asosida), G‘arb adabiyoti namunalarini qiyosiy-talqinida

islohotlar, asarlar mavzusi rang-barangligi va muallif biografiyasining filologik tahlili (maktab darsliklari materiali asosida) xususidagi masalalar tadqiq qilingan.

Bobning (3.1.) *“O‘rta maktab darsliklarida dramatik asarlar talqini va adabiyotshunoslik atamalarining berilishi (U. Shekspirning “Hamlet” tragediyasi asosida)”* nomli paragrafida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi islohotlar, Uchinchi Renessans boshlanishi deb nomlanayotgan davr talabi ta’lim-tarbiya jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi bo‘lmish “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” va u bilan bog‘liq me’yoriy hujjatlarni zamon va bugungi kun talab hamda ehtiyojlariga moslashtirib qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Bu talablarning zamirida esa ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, jamiyatda o‘qituvchi nufuzini ko‘tarish, uning sifatli amaliy faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoit yaratish, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun esa har bir fan, predmetning o‘qitilishidagi mavjud holatni tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni aniqlab olish muhim. Ushbu holatlardan kelib chiqib, maktablarimizda chet el adabiyoti namunalarini o‘qitishning ayni paytdagi holatini turli aspektlarda, jumladan, tur va janrlar kesimida o‘rganish va tahlil qilish ham muammoni yoritishda hamda muayyan darajada hal etishda zaruriy omil bo‘lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Shu o‘rinda milliy maktablarda mumtoz adabiyot namunalari o‘qitilishini batafsil tahlil qilgan V.A. Kadirov bir necha dolzarb va muammoli masalalarni o‘rtaga savol tariqasida tashlaydi va o‘z javoblarini beradi: “o‘rta maktabda mumtoz adabiyot qanday o‘qitilmoqda? Aslida bu ritorik savolga o‘xshab ketadi – javobi aniq: yaxshi emas. Lekin bu “yaxshi emas”liklar nimalarda namoyon bo‘ladi? Sababi nimada? Ularning ildizlari qayerga borib taqaladi? Ana shu savollarga javob topish muhim. Bu tashxis qo‘yishdek bir gap. Shunga qarab chora izlanadi, tadbir belgilanadi. Bizningcha, qoniqarsiz ahvolning ikki: obyektiv va subyektiv sabablari mavjud bo‘lib, ularning biri boshqasining chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda. Obyektiv omillar o‘qituvchi shaxsiyatidan ko‘ra ko‘proq ta’lim mazmuniga mas’ul muassasalar, direktiv hujjatlar bilan bog‘liq”[12]. Ming taassuflar bo‘lsinkim, V.A. Kadirovning fikriga qo‘shilmay ilojimiz yo‘q. Albatta, V.A. Kadirov bu yerda fikrlarini yumshoq ifoda etadi, ammo chet el adabiyoti namunalarini o‘rta maktabda o‘rganilishiga kelsak, e’tirozimiz jiddiy va qat’iyroqdir. Mavjud direktiv hujjatlardagi bu yo‘nalishga soatlarning kam ajratilishi, maktab sinflaridagi xronologiya va berilgan chet el adabiyoti namunalarining doim ham ta’lim maqsadiga mos kelavermasligini qiyosiy va filologik planda o‘rganishimiz davomida ko‘rsatib o‘tdik va bu mavzuga takror va takror murojaat etishimiz tabiiy. Mazkur paragrafda masalani alohida olingan mavzu nuqtai nazaridan, xususan, dramatik janr namunalarining o‘rta maktablarimizda o‘rganilishi va ularning, umuman, chet el adabiyoti namunalarini o‘rganilishning adabiyotshunoslik atamalari, nazariy tushunchalar bilan boyitilishi aspektida ko‘rib chiqamiz. Bunda asosiy e’tibor o‘zbek maktablarining 8-9-

[12] Kadirov V.A. Umumta’lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Pedagog fan. dokt. (DSc) … diss. – Namangan, 2019. – 271 b.

sinflarida o‘qitiladigan chet el dramaturglarining asarlarini o‘rgatilishiga qaratiladi va ular ilg‘or xorijiy maktablarning mos sinflarida o‘qitiladigan darslar bilan qiyoslanadi.

Agar maktab darsliklari va ular asoslangan taqvimiy o‘quv rejalarini o‘rganib chiqsak, o‘zbek maktablarining 5-11-sinflarida faqatgina U.Shekspirning “Hamlet” asari 9-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan (darslikning oldingi nashrlariga “Otello” tragediyasi kiritilgan bo‘lgan). O‘n bir yillik o‘rta ta’lim davomida o‘quvchi jahon adabiyotidan bittagina tragediyani o‘rganish orqali o‘rta ma’lumotga ega bo‘ladi (o‘zbek dramaturglari asarlarini istisno qilganda, albatta). Shu o‘rinda qiyos keltirib o‘tish lozim deb hisoblaymiz. Ma’lumki, barcha ilg‘or jamiyatlarda o‘rta ta’lim dasturiga ko‘ra, albatta, Shekspir ijodi o‘rganiladi. Agar bir qator ilg‘or jamiyatlar (Angliya, Germaniya, Rossiya va boshqalar) maktablarining o‘quv dasturlarini yagona maxrajga keltiradigan bo‘lsak, shubhasiz, Shekspirning “Romeo va Julyetta” hamda sonetlari, J.B.Molyerning “Meshan odam dvoryanlikda” va B.Shouning “Pigmalion” asarlari maktab dasturlaridan, albatta, joy olgan. Aksariyat hollarda milliy dramaturglarni inobatga olmasak, J.G.Bayron, Shiller, R.Bredberi va Shekspirning boshqa dramatik asarlarini maktab dasturlarida, albatta, kuzatamiz va ular, jahon adabiyoti namunalarini nazarda tutyapmiz, kamida o‘rta ta’lim davomida o‘rtacha 4-5 ta yirik asarni tashkil etadi. Gap faqat dramalarning badiiy matni haqida ketmoqda. Holbuki, ularni o‘rganish uchun jalb qiladigan metodologiya, savol va topshiriqlar ham biznikidan tubdan farqlanadi. Masalan, bugungi rus maktablarida o‘quvchilar 8-sinfda uchta chet ellik muallif ijodi bilan yaqindan tanishishadi. Bu tanishuv U. Shekspirning “Romeo va Julyetta” asari va uning ijodidagi adabiyotning “abadiy mavzulari” – hayot va o‘lim, muhabbat va hijron, jinoyat va jazo, otalar va bolalar, burch va mansab, boylik va yo‘qsillik, sadoqat va xiyonat, or-nomus hamda sevgi va hokazolar o‘rganiladi. Shu o‘rinda ta’kidlashimiz mumkinki, U.Shekspirning ushbu asari Hazrat Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni bilan qiyosiy o‘rganilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lur edi.

Rus maktablarida tragediya janri o‘rganilgach, sonet janri haqida nazariy tushuncha beriladi. Nazariy tushunchalar Shekspirning “Afsus, misram yarqiramas yangiligi-la” va “Kim maqtansa qarindoshim zodagonlar deb” boshlanuvchi sonetlarni tahlili orqali mustahkamlanadi. Kllassitsizm adabiy oqimini Jan Batist Molyer ijodi, uning “Meshan odam dvoryanlikda” asarini o‘rganish orqali maktab o‘quvchilariga tanishtiriladi. Bunda asarning ayrim sahnalari tanishtirish uchun ommaviy o‘qiladi. O‘quvchilarga matndan dramaturg Molyerning klassitsizm prinsiplaridan chekingan o‘rinlari nimalarda kuzatilishini aniqlash topshirig‘i beriladi. Shuningdek, asarning sahnalashtirilgan variantini tamosha qilish va komediya yuzasidan yakuniy ijodiy taqriz yozish vazifasi topshiriladi. Shundan so‘ng, Jonatan Sviftning “Gulliverning sarguzashtlari” o‘rganilib, badiiy adabiyotda fantastika mavzusini o‘rganish chuqurlashtiriladi. Asardan so‘ng taniqli adabiyoshunos N. Mixalskayaning “Svift va uning “Gulliverning sayohatlari” romani” nomli maqolasidan yirik parcha keltiriladi. Bu maqolani o‘rganish davomida o‘quvchilar o‘z shaxsiy fikrlarini N. Mixalskaya aytgan qarashlarga

nisbatan qarshi qo‘yishlari lozim. Shu sinfda o‘quvchilarining tasavvuri tarixiy roman janri haqidagi tushunchalar bilan boyitiladi. Buning uchun Valter Skotning “Ayvengo” romani darslar dasturiga kiritilgan. Bu kitob sharhi uchun adabiyotshunos D.Urnovning “Eskirgan adob-axloq” maqolasi keltirilib, o‘tmishdagi ingliz axloqi me’yorlari, estetik qonun-qoidalar, zodagonlik odatlari haqida tafsif va mulohazalar bildiriladi. O‘quvchilarga ushbu asarni rus milliy adabiyotida tarixiy mavzuda yaratilgan asarlar bilan qiyoslash taklif qilinadi, faqat ularda ham tarixiy davr keng aks etgan bo‘lishi kerak.

“Nutqni rivojlantirish” – “Развитие речи” bo‘limida dramatik asarlar va sonetlarni ifodali o‘qish hamda uni og‘zaki baholash, taqrizdan o‘tkazish, savollarga javoblarni iqtiboslar orqali berish, qahramonlarni rejaga ko‘ra og‘zaki va yozma tavsiflash, jamoaviy dialogda ishtirok etish kabilar taklif qilinadi.

Aytilganidek, Uilyam Shekspirning “Hamlet” asari maktablarimizning 9-sinfida o‘rganiladi; buyuk dramaturg ijodini o‘rganishga eng ko‘p, 5 soat ajratilgan. Darslikda dastlab Shekspir biografiyasi keltirilib, unga savollar ham qo‘yiladi. Unda bahsli o‘rinlar mavjud. Masalan, jahon adabiyotshunosligida “Shekspir masalasi” hali hamon o‘z yechimini topmagan, tortishuvli muammolardan ekanligi (masala uning muallifligi to‘liq isbotlanmaganligi sababli paydo bo‘lgan) ko‘rsatilishi o‘rniga, uning mashhur aktyor bo‘lganligi, bu narsa uning asarlarini yaratishida qo‘l kelganligi aniq dalillarsiz ta’kidlanadi. Dramaturgning biografiyasi bayonida bir-birini inkor etuvchi o‘rinlar ham uchraydi.

Shekspirning “Hamlet” tragediyasi matni Jamol Kamol tarjimasida maktab darsligida tabiiy ravishda qisqartirilgan tarzda beriladi. Darslikda tragediya birinchi pardaning to‘rtinchi sahnasi, Hamlet va otasining arvohi uchrashuvidan boshlanadi. U do‘stlari Goratsio va Marsellarning qarshiliklariga qaramasdan, o‘zini chorlayotgan arvoh ortidan bir chekkaga boradi va uni otasining arvohi ekanligidan, saroyda mudhish qotillik yuz berganligidan xabar topadi. U arvoh sahnani tark etgach bu sirdan do‘stlarini voqif qilmoqchi bo‘ladi, ammo buning uchun ular qilichda ont ichishlari kerak bo‘ladi. Asar sujeti, voqealar rivojining tugunini tashkil etishi bilan birga, bosh qahramon Hamlet psixologiyasi va xarakterida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni asoslovchi sahna ko‘rinishidan so‘ng darslik mualliflari savol va topshiriqlarni berishadi. Agar diqqat qilinsa, “Hamlet” tragediyasi matniga nisbatan savol va topshiriqlarning barchasi konseptual xarakterga ega bo‘lib, har bir sahna – ko‘rinish matniga alohida tuzilgan. Ularga javob topish uchun o‘quvchi matnga murojaat qilishi, uning mohiyati to‘g‘risida fikr yuritishi lozim bo‘ladi.

Bobning ikkinchi paragrafi (3.2.) *“G‘arb adabiyoti namunalarining qiyosiy-talqinida islohotlar, asarlar mavzusi rang-barangligi va muallif biografiyasining filologik tahlili (maktab darsliklari materiali asosida)”* deb nomlangan. So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda barcha jabhalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar maktab ta’limini ham chetlab o‘tmagani, aksincha, islohotlarning turli dasturlari doirasida ta’lim tizimining barcha bosqichlarida

ta’lim sifati, sohaning moddiy-texnik ta’minoti muammolarining hal etilishiga birlamchi muhim vazifa sifatida qaralayotgani bois erishilgan yutuqlar belgilab qo‘yildi. Natijada, bu o‘z samarasini bera boshladi. Bunga maktab dasturlari mazmun-mundarijasini ikki-uch o‘quv yilidagisini qiyoslab ishonch hosil qilish mumkin. Bu, ayniqsa, o‘tgan o‘quv yili yakunlari hamda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik jarayonida o‘quv yilining adabiyot fanidan 2022-2023-yilga mo‘ljallangan taqvim rejasi e’lon qilingach, birdan ko‘zga tashlandi. Taklif etilgan rejada maktab darsliklarida beriladigan jahon adabiyoti namunalarining mundarijasi keskin o‘zgartirilgan[13].

Ko‘rinadiki, 2022-2023-o‘quv yilidan o‘zbek o‘rta maktablarida chet el adabiyoti namunalarini o‘rganish ma’lum darajada kengaytirilgan. Mundarija mazmunidan tashqari darsliklar mavzuga tayyorgarlik, asar matni bilan ishlash va “Muhokama qilamiz” kabi savol va topshiriqlar bilan boyitilgan ruknlardan iborat tarzda tuzilgan. Ayniqsa, maktab adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan nazariy tushunchalarning har bir asarni o‘rganish jarayonida muallif biografiyasi bilan bir qatorda berilishi va darslikda fanlararo aloqa ruknining tashkil etilganligi ham maqsadga muvofiqdir. Bu ko‘p yillab tanqid qilingan ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzilishlarni bog‘lash maqsadidagi jiddiy qadamlardandir.

Shu o‘rinda tadqiqotimizning oldingi boblarida o‘rganib chiqqanimiz 5-9-sinflar darsliklariga kiritilgan, aniqrog‘i, kiritilayotgan islohotlar (amalda yangi o‘quv yili boshlanganligi va dars dusturi ijrosi boshlanganligiga qaramasdan, o‘quvchilarga oldingi yillarda nashr etilgan o‘quv adabiyotlari bepul tarqatilgan, yangisi hali yetib kelmagan), 5-6-sinflarning adabiyot darsliklari mundarijasida aks etishi yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgan. Bu yerda afsuslanadigan bir jihat J.Svift va A.de Sent-Ekzyuperi asarlarining maktab dasturidan chiqarib tashlanganligidir.

So‘ngi yillarda darsliklarda taqdim etilgan badiiy matnlarning metodologik va nazariy ta’minoti nisbatan yaxshilangan. Quyi va yuqori sinflarda adabiyot ta’limida nazariy adabiyotshunoslik yoki maktab adabiyotshunosligi tushunchalari, atamalari bayoni va sharhida ma’lum izchillik yuzaga kelgan. Natijada, ta’lim va fan, ta’lim va ishlab chiqarish aloqalarini bog‘lovchi ilk rishtalar shakllantirilgan. Alohida tavsiya etilgan adabiyotshunoslik kategoriyalari (asar mavzusi, muammosi, janri, badiiy metodi, ko‘chimlar va boshqalar) aspektida badiiy matn tahlili ko‘nikmasi va malakasini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi, mustahkamlovchi va tizimga soluvchi savol va topshiriqlar bazasi barcha mavzular bo‘yicha ham yetarli va talab darajasida emas (Shekspir ijodi, aka-uka Grimlar ertagi va boshqalar ijodini o‘rganishda bu hol kuzatiladi), ularni takomillashtirish zarurati mavjud.

XULOSA

1. Maktabda xorijiy adabiyot namunalari poetikasi talqinining ilmiy-nazariy asoslari retrospektiv planda milliy-tarixiy manbalar asosida o‘rganilganda, qadimdan madrasalar ta’limida davr va ta’lim falsafasi sababli, umumislomiy

[13] www.idum.uz.Adabiyot_taqvim_mavzu_reja_2022-2023.pdf

e’tiqod va shariat ahkomlari asosidagi ta’lim jarayonlarida arab va fors tili ustuvorlik qilgan davrlarda ham, turkiy til va eski o‘zbek tili yetakchilik qilgan boshqa asrlarda ham adabiyot xorijiy yoki chet el adabiyoti sifatida ta’kidlab ajratilib o‘rganilmagan. Asosiy e’tibor milliy mansubligidan qat’iy nazar badiiy matn saviyasi, g‘oyaviy yetukligi va san’atlarga boyligiga qaratilgan.

2. Buyuk ajdodlarimizni tarbiyalagan adabiyotda ibrat olinadigan va zamonaviy amaliyotga joriy etish foydadan xoli bo‘lmagan jihatlari ham mavjud. Jumladan, ilmi g‘ariba (ilmi g‘arib) – kam so‘z qo‘llab keng ma’noni ifodalash, ilmi maoniy – bayon etish, biror narsa yoki hodisaning mohiyatini, mazmunini yechib beruvchi ilm, ilmi muhozirot – latifago‘ylik, hozirjavoblik, zukkolik va boshqa ta’lim usullaridan foydalanish hozirgi kunda ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Bunday adabiyot ilmi usullari zamonaviy ta’limda nafaqat G‘arb adabiyotini, balki milliy adabiyotni o‘rganishda ham samaralidir.

3. Milliy va xorijiy adabiyot namunalarini o‘zaro muqoyasada, parallel tarzda o‘rganish yetarli darajada takomillashmagan. Bundan G‘arb Fynik davri ijodkorlaridan tortib zamonaviylarigacha istisno emas. Ayni yondashuvlar o‘quvchilarga chet el va milliy adabiyotni qiyosiy o‘rganish imkonini beradi va tanlanilgan badiiy matnda aks ettirilgan tarixiy voqelik, ko‘tarilgan badiiy-estetik, adabiy-falsafiy muammolar ham o‘zaro mushtaraklik kasb etishi o‘ta muhimdir. Hozirgi kunda Prezident maktablari va Ijod maktablarining ta’limida ushbu jihatlar inobatga olinib ilg‘or xorij tajribasiga tayanilgan holda yaratilsa, boshqa maktablar uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

4. Milliy ta’lim tizimida ishchi o‘quv dasturlari ham amalda yuqoridan tushirilgan yagona namunaviy o‘quv dasturi asosida yaratiladi. Natijada o‘qituvchi qanchalik talantli va tashabbuskor bo‘lmasin, ish faoliyati me’yoriy hujjatlar doirasida cheklangach, ijodiy ishlanmalar yaratish, muammoli va iqtidorli talabalar uchun o‘zgacha, kreativ darslar o‘tish muammoligicha qoladi. Milliy tajribada o‘zbek adabiyoti borasida yaratilgan tajribali o‘qituvchilarning turli dars ishlanmalarini kuzatishimiz mumkin. Hatto internet tarmoqlarida, turli o‘qitish maskanlari saytlari va ayrim shaxsiy sayt hamda telegramm kanallarida ularga duch kelamiz. Mavjud zamon talablariga hamohang kreativ dars ishlanmalari milliy adabiyot tarixi va nazariyasiga oid bo‘lib, maktab xorijiy adabiyot namunalari poetikasi borasida esa, bugungi kun va ilg‘or xalqaro maktablar talablariga mos multimediaviy hamda elektron dars ishlanmalari internet makonida kuzatilmaydi.

5. Maktablarning (5, 6, 7-sinflarda) amaldagi darsliklarida, ilg‘or mamlakatlarning ta’lim tizimlari tajribasidan kelib chiqsak, chet el adabiyoti namunalarini o‘qish va o‘rganishga ajratilgan vaqt va mavzularni kengaytirish zarurati mavjud. Darsliklarda tanishish uchun taqdim etilgan asarlar ro‘yxati nisbatan kengroq va xilma-xil, ertaklar deyarli to‘liq formatda beriladi, ammo 7-sinfga kelib faqat bitta asar bilan cheklanilgan. O‘rganilayotgan asarlar yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni, maktab ta’limiga oid boshqa fanlar bilan integratsiyasi inobatga olingan holda va zamonaviy ta’lim texnologiyalari

qo‘llanishini nazarda tutib tuzish zarur. Amaldagi o‘quv adabiyotlarida bu jihatlar nazarda tutilmagan.

6. Maktab darsliklarida yo‘l qo‘yilgan mantiqiy uzilishlar (J.Rodari ertaklari so‘nggidagi nazariy sharhlarda), grammatik xato va uslubiy g‘alizliklarga (E.S.Tompsonning almashtirilgan “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari matnidagi kabi) barham berilishi yoki bu materiallarning bir nechta tarjima variantlari, mustaqil ta’lim tarzida berilishi maqsadga muvofiqdir.

7. J. Sviftning hayoti va ijod yo‘li bayonida demokratik ruhdagi yondashuv seziladi, hayotiy dalillar bilan bir qatorda, odatda, milliy tanqidchilik hadiksiraydigan muallifning siyosiy-g‘oyaviy qarashlari, ularning “Gulliverning sayohatlari” asarida majoziy ma’noda aks etishi, keskin va oshkora tanqidiy ruh darslik muallifi tomonidan ochiq va dadil tasvirlanadiki, yosh kitobxonda, agar unda fikrlash qobiliyati shakllana boshlangan bo‘lsa, asarni o‘qib chiqishga ishtiyoq keskin oshadi. Shunday uslubdan barcha mavzularni yoritishda foydalanish foydadan xoli bo‘lmaydi. Ingliz va rus maktablarida J. Sviftning “Gulliverning sayohatlari” romani bo‘yicha o‘tiladigan dars sof adabiyot, poetik talqin tarzida o‘tilib, so‘ngra integratsiyalangan – binary dars sifatida davom ettiriladi. Adabiyot fani o‘qituvchisi, tasviriy san’at hamda geografiya fani o‘qituvchilari ko‘magida, “Fantastik orol” mavzusini o‘rganadi. Ayrim maktablarda interatsiyalashgan fanlar kesimida yozma ishlar, topshiriqlar bajarishadi. Bu tajribadan keng foydalanishga tavsiya etiladi.

8. O‘zbek maktablarining 5-11-sinflarida jahon dramaturgiyasidan faqatgina U. Shekspirning “Hamlet” asari 9-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan (darslikning oldingi nashrlariga “Otello” tragediyasi kiritilgan bo‘lgan). O‘n bir yillik o‘rta ta’lim davomida o‘quvchi jahon adabiyotidan bittagina tragediyani o‘rganish orqali o‘rta ma’lumotga ega bo‘ladi (o‘zbek dramaturglari asarlarini istisno qilganda). So‘nggi yillarda amalga oshirilgan darsliklar islohoti ham bu mavzuga dahl qilmagan, vaziyat o‘zgarmagan. Qiyosiy tahlillar asosida o‘rganilgan xalqaro tajriba vaziyat tubdan boshqacha ekanligini ko‘rsatadi. Maktablarning adabiyot fani bo‘yicha o‘quv dasturlari va darsliklar tahlili nazariy adabiyotshunoslik tushunchalari va atamalari tizimini qiyoslash imkonini beradi.

9. Maktab adabiyotshunosligi badiiy matndan so‘ng beriladigan tagmaqola, janr to‘g‘risida mulohaza, ba’zan sharhlar tarzida beriladi. 8-9-sinflarda Shekspir ijodiga bag‘ishlangan maqola uslubiy va imloviy xatolar mavjudligi sababli hamda mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘z vazifasini yetarli darajada bajara olmaydi.

10. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xorijiy adabiyot namunalari poetikasi talqinining ilmiy-filologik o‘ziga xosliklarini milliy-tarixiy va xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili asnosida o‘rganish va tahlili borasida maktab dasturlari yangilanganligini, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda rivojlangan mamlakatlar ta’limi bilan qiyoslanganda J.Svift, A.de Sent-Ekzyuperi asarlari ta’lim dasturlaridan tushirib qoldirilishi maqsadga muvofiq emas. Milliy adabiyotimizning mumtoz va zamonaviy namoyandalari ijodiga va ayrim rus adiblari asarlariga turli sinflarda ikki-uch martalab takror murojaat qilingan holda,

jahon adabiyotining umumbashariy madaniy ahamiyatga ega vakillari darsliklarga kiritilmagan. Agar milliy adabiyotimizning qadrli vakillari ijodi va hayotlarini bir sinfda izchil va batafsil o‘rgangan holda, adabiyot fani dasturlarida turli sinflarda takroran o‘rganilayotgan mualliflar ijodiga, masalan, nemis adiblari yoki boshqalarni xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda kiritish mumkin bo‘ladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО присуждению УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

АКИНДИКОВ НУРМАХАМБЕТ БОРАНТАЕВИЧ

ПОЭТИКА ЗАПАДНОЕВРОПЕЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ (на материале школьных учебников)

10.00.06 – Сравнительное литературоведение и переводоведение

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2022.1.PhD/Fil2247.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, и английский (резюме) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Исмаилов Анвар Рустамович** доктор педагогических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	**Мусурмонов Эркинжон Раббимович** доктор филологических наук (DSc), профессор
	Буриева Наргиза Кучкаровна доктор филологических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	**Гулистанский Государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2026 года в _____ часов на на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43 Тел: (99866) 234-29-36; e-mail:info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером _____). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43 Тел: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2026 года.
(Протокол реестра рассылки № ___ от «____» _____ 2026 года)

Б. А. Холиков
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А. Киселёв
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой литературоведческой науке в эстетике художественной литературы, всё новое, созданное художественным мышлением автора, признаётся уникальным явлением уже в силу того, что ранее не существовало точного аналога данного феномена. Литература является опорным фактором, стимулирующим формирование духовного облика молодого поколения в его нравственно-психологическом поиске. Литература занимает важное место в эмоционально-чувственном, интеллектуальном и эстетическом развитии личности, в осмыслении бытия и национальной идентичности. Действительно, без изучения искусства художественного слова трудно представить духовный прогресс нации. Литература обладает значительным социальным значением в эстетическом постижении мира, в осмыслении человека в бытии и бытия в человеке в рамках общего глобального пространства, а также в оценке реальности в когнитивном мире человека и в осознании его статуса в реальном мире. История мирового сообщества свидетельствует о том, что благодаря данным особенностям литература способна в современном тревожном мире выполнять свою социальную функцию на уровне мощной, не имеющей аналогов силы источника духовного могущества. В свою очередь, это может служить укреплению фундамента, заложенного предками во имя добра в национально-духовной цивилизации человечества, а также содействовать будущему нации и процветанию страны. В связи с этим особую актуальность приобретает изучение образцов мировой литературы, в частности западноевропейской, узбекскими читателями, прежде всего представителями молодого поколения, на основе современных художественно-поэтических критериев и принципов отбора.

В мировом литературоведении значительное внимание уделяется современным интерпретациям и сравнительному анализу поэтики литературы стран Западной Европы. При этом в художественных текстах народов мира, начиная с древнейших времён и до современности, отражён не только пройденный ими исторический путь развития, но и в подлинном смысле их разум и сознание, духовный мир и мышление. Научное изучение данных аспектов служит основой для всестороннего осмысления когнитивного мира народа носителя данной литературы. Особую значимость приобретает анализ и исследование произведений, ориентированных на молодёжную читательскую аудиторию, поскольку именно такой подход открывает широкие возможности для современного и будущего развития. Использование художественного слова, его восприятие, а также его сущностная роль в решении актуальных проблем своего времени и перспектив будущего находятся в центре внимания исследователей. Процессы глобализации обусловливают коренные изменения в отношении к языкам и художественной литературе народов мира. Это закономерно, поскольку в истории человеческой цивилизации, помимо языка и

художественной литературы, не существует иного живого свидетельства, столь полно отражающего её развитие. В связи с этим исторические и жизненные истины, запечатлённые в своеобразной художественной форме, фиксируются в истории нашей цивилизации как значимое научное и культурное наследие. Литературные образцы, прошедшие путь от древнегреческой мифологии до современной модернистской литературы, приобретают как теоретическую, так и практическую значимость для изучения эволюции человеческой жизни на каждом историческом этапе.

В условиях современного мира, когда в нашей стране стремительно развивается интеграция реальной жизни и науки, объективной реальностью является определение ключевых факторов формирования фундамента Третьего Ренессанса в Узбекистане. Как подчёркивается: «В настоящее время в нашей стране протекает ещё один важный процесс Возрождения. Именно поэтому понятия “Новый Узбекистан” и “Третий Ренессанс” в нашей жизни звучат созвучно и гармонично, вдохновляя наш народ на достижение великих целей»[14]. Подтверждением этому служат достижения в сфере науки, а также в социальном, экономическом, культурном и иных направлениях развития общества. Исходя из этого, в ряду актуальных исследований в области сравнительного литературоведения возникает насущная необходимость в современной интерпретации и сравнительном анализе поэтики литературы стран Западной Европы (на материале школьных учебников). Сравнительно-филологический и поэтико-структурный анализ образцов литературы народов Запада (Эзоп, Гомер, У. Шекспир, М. Сервантес, Дж. Свифт, А. де Сент-Экзюпери, Э. М. Ремарк, Х. К. Андерсен, Ж. Верн, А. Доде, Дж. Лондон, Э. С. Томпсон и др.), Востока (Р. Тхокур, А. Джами, Фузули, Саади Ширази, Абай, Муса Джалиль, Олжас Сулейменов, Ч. Айтматов, Р. Н. Кюльтегин и др.), славянских народов (А. Пушкин, Н. Гоголь, Л. Толстой, С. Есенин и др.), а также народов Кавказа (Н. Думбадзе, Р. Гамзатов), преподаваемых в школах Узбекистана, с позиций требований современной духовно-просветительской и общественно-политической среды способствует повышению качества преподавания зарубежной литературы. Анализ некоторых ключевых факторов исторического опыта изучения образцов мировой литературы в нашей стране, её современного состояния, достижений и недостатков с опорой на передовой международный опыт позволяет обосновать актуальность сравнительного исследования художественной ценности и эстетической значимости рекомендованных для изучения произведений, их общечеловеческих и национальных истоков, а также специфических научно-филологических особенностей, на которые необходимо обращать внимание в процессе их преподавания. Актуальность темы исследования также определяется тем, что в настоящей диссертации проблемы преподавания зарубежной литературы в школе в их филологическом и поэтическом аспектах, равно как и особенности и

[14] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари: “Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда” // https://uza.uz/uz/posts/yangi_293336.17.08.2021.

специфика изучения данного вопроса в развитых обществах, до настоящего времени не становились объектом комплексного сравнительного анализа, а их современное, историческое, теоретическое и практическое значение не было изучено с позиций сравнительно-теоретического литературоведения.

Настоящая диссертация в определённой мере способствует реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП -4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», постановлениях от 20 апреля 2017 года № ПП - 2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», от 13 сентября 2017 года № ПП-3271 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и популяризации культуры чтения», от 19 мая 2021 года № ПП - 5117 «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый этап», а также постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № ПП -610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» и других нормативно-правовых актов.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики I. «Формирование и реализация системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Образцы литературы стран Западной Европы обладают исключительно широким спектром влияния в современном общественном пространстве. В мировом литературоведении вопросы филологической интерпретации и восприятия художественных текстов исследовались такими зарубежными учёными, как Элвелл Сеттон, Ж. Гарсен де Тасси, А. Бомбачи[15], М. Кёпрюлюзаде, Д. Селви, Н. Трапезникова, С. В. Тураев, Т. Ф. Курдюмова, А. Г. Кутузов, В. Г. Мансман и другими, на основе материалов, характерных для литератур различных стран и народов[16]. В настоящее время и в нашей стране наблюдается усиление внимания к культуре чтения, возведение её на уровень государственной политики, в

[15] Bombaci A. The Turkic Literatures. Introductory Notes on the History and Style. – PhTF. T. 2, 1994. – 96 p/.; Garcin de Tassy J. Rhetorique et prosodie des langues de l'Orient musulman. – Paris: 1993. – 282 p.; Elwell Sutton L. R. The Persian Metres. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 300 p/; Köprülü-zade M. – Babur Şahının şiirleri. – İstanbul, 1956. – 204 s.; Selvi D. Kaynaklariyla tasavvuf. – İstanbul: Semerkand, 2014. – 204 s.

